

JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLARSHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI

Maxamadustov Jalol Maxamadustovich

Mustaqil izlanuvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya

Ushbu tezisda jismoniy shaxslardan olinadan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliqlarni undirish mexanizmi, soliq elementlari, soliq qarzdorligi, soliq imtivozi, elektron hujjat, jismoniy shaxslar.

Buyuk Britaniyada esa soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash uchun jarimalar yetarlicha extiyotkorlik choralarini ko‘rgan bo‘lsangiz va soliq organlariga xato haqida xabar berган bo‘lsangiz jarima belgilanmaydi. Extiyotkorlik choralarini ko‘rmagan bo‘lsa yoki soliq summasini to‘lamagan bo‘lsangiz, 30% gacha, agar xato qasddan qilingan bo‘lsa, 70% gacha, agar xato qasddan qilingan bo‘lsa va siz uni yashirishga harakat qilgan bo‘lsangiz, 100% gacha belgilangan tartibda jarima solishga sabab bo‘ladi. Eng og‘ir jazo hukmi esa 3 yildan 17 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tartibi belgilangan.

Litva davlatida soliq ssudasi shartnomasi tuziladi. Bunda soliq ssudasi shartnomasi - soliq qarzini to‘lashni kechiktirishning turlari bo‘linadi. (grafik asosida, ma’lum muddatga kechiktirish va hakoza)

Mazkur soliq ssudasi shartnomasinnig 86-moddasiga asosan Soliq organini ruxsati bilan mavjud soliq qarzini boshqa aloqador soliq to‘lovchiga yuklash mumkin.

Shartnomaning 88-moddasiga asosan, Soliq to‘lovchiga faoliyatiga moliyaviy qiyinchilik keltirib chiqarish holati ko‘zatilsa, shartnoma (soliq krediti) tuzgan holda soliq qarzini to‘lash muddati uzaytirish mumkin. Bunda, Fuqarolik kodeksiga muvofiq zalog, kafillik bilan ta’milanadi. Shartnomaning 107-moddasiga soliq qarzini undirish davri 5 yil etib belgilangan.

Avstraliya davlatida soliq qarzini to‘lash uchun ko‘proq vaqt ajratish uchun soliq to‘lovchilarining so‘rovlariga javoblarini avtomatlash tiradigan real vaqtida qarzni boshqarish tizimini yaratish uchun sun’iy aql bilan birga bashoratli modellashtirishni qo‘llaydi. Tizim soliq to‘lovchilar tomonidan belgilanadigan to‘lov shartlarini



belgilaydi, ularning prognozlash-tirilgan moyilligi va to‘lov qobiliyati asosida belgilanadi.

Ma’lumki, davlat tuzilishi nuqtai-nazaridan AQSh federal davlat hisoblanib, uning soliq tizimi ham uch pog‘ana: federal soliqlar, shtat soliqlari va munitsipial mahalliy soliqlardan iborat. AQShda aholidan olinadigan daromad solig‘i “personal income tax” yoki “individual income tax” solig‘i deb ataladi va u to‘rt turga bo‘linadi:

1. Federal daromad solig‘i (Federal income tax).
2. Shtatlar daromad solig‘i (State income tax).
3. Sotsial himoyalash solig‘i (Social Security tax/yoki Social Insurance Tax).
4. Tibbiy sug‘urta uchun to‘lovlar(Medicaretax).

Federal daromad solig‘i (Federal income tax) butun davlat miqyosida bir xil tartibda progressiv soliq stavkalarini qo‘llagan holda undiriladi. Ammo bu soliq ayrim shtatlarda (masalan, Alyaska, Florida, Nevada, Yujnaya Dakota, Texas, Vashington, Yangi-Gempshir va Tennessi kabi) undirilmaydi, ya’ni bu shtatlarda yashovchi aholi faqat federal daromad solig‘ini to‘laydilar. Biroqbu shtatlarda daromad solig‘i o‘rninibosadigan boshqa soliqlar, masalan Nevada shtatida qimor o‘yinlari va shou biznesdan olinadigan maxsus soliqlar (gambling tax) undirilsa (ayniqa Las-Vegas shahrida), Yangi-Gempshir va Tennessi shtatlarida aholidan bankdagi depozitlaridan olgan foydasi hamda divedendlardan oladigan daromadlaridan 5-6 foizlik soliq undiriladi.

Federal daromad solig‘ini to‘lashda soliq to‘lovchisi-jismoniy shaxs o‘zi uchun yoki oilasi(turmush o‘rtog‘i)uchun yoki butun oilasi uchun soliq to‘lashi yoki to‘lamasigni tanlaydi. Kelgusi yilda o‘tgan yilda olgan daromadlari bo‘yicha soliq deklaratsiyasini topshirganda ana shundan kelib chiqib soliq to‘laydi. AQShda ushbu soliqni undirish mexanizmlari o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunday xususiyatning dastlabkisi, bu daromad egasining soliqni to‘lash tartibini tanlashidir. Ya’ni xodim u yoki bu tashkilot(korxona, firma va sh.k.)ga ishga kirishda soliqni qanday shaklda to‘lashi mumkinligini tanlaydi.

Birinchi shakli bu ish beruvchi daromad soliqlarni ushlab qoladi va qolgan qismini daromad egasiga beradi. Bunda soliq stavkalari maxsus shkalalarni qo‘llagan holda soliq hisoblanib,o‘rtacha 17-18 foiz atrofida soliq undiriladi.

Ikkinci shaklida daromaddan soliq ushlanmasdan to‘liq daromad egasiga beriladi, bunda esa yilning oxirida soliqni jismoniy shaxs o‘zi hisoblab to‘laydi. Ikkala shaklda ham jismoniy shaxs soliq xizmati organlariga olgan daromadlari haqida deklaratsiya topshiradi. Soliq to‘lashning bunday tartibi joriy etilishi AQShda soliq maslahatining rivojlanishiga ta’sir qildi. Chunki jismoniy shaxs qaysi shaklda soliq



to‘lashi unga iqtisodiy samaradorligi va javobgarlikni aniqlash uchun soliq maslahatchilariga murojaati oshadi.

AQSh va Buyuk Britaniya soliq tizimida soliq deklaratsiyalari orqali soliq undirishning davlat soliq xizmati organlari uchun ortiqcha mehnatni talab qilsada, ammo soliq to‘lovchi uchun uning qulayliklari juda ko‘p. Birinchidan, bu davlatlarda soliq to‘lashdan qochgan shaxslarni ijtimoiy xavfli toifadagi aholi qatlami sifatida baholanishi bo‘lib, soliq deklaratsiyasini topshirish orqali har bir fuqaro o‘zining davlat oldidagi qarzini aniqlab oladi va qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Soliq deklaratsiyasining boshqa yana muhim afzalligi shundaki, agar sizdan ishberuvchi korxona daromad solig‘ini ushlab qolgan bo‘lsada, ammo sizning jami yillik daromadingiz soliq deklaratsiyasini topshirish mezoni sifatidagi daromaddan kam bo‘lgan bo‘lsa, uholda ilgari ushlab qoligan soliqlarni byudjetdan to‘liq qaytarib beriladi. Qayd qilinganlardan ko‘rinadiki, jahon tajribasi, xususan AQSh va Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tizimining o‘ziga xos afzalligi garchi, soliq xizmati organlarining ish hajmlarini oshirsada, ammo aholining soliq madaniyatini oshirishga xizmat qilishi bilan birgalikda ularning soliqlar borasidagi bilimlari oshirib borilishiga xizmat qiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, soliq to‘lovchilar qaysi tartibda soliq to‘lash unga iqtisodiy jihatdan qulayligini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularni iqtisodiy tahlil qilishni va soliqqa oid qonunlarni o‘rganishga undaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bizning respublikamizda aholining real pul daromadlari va daromadning qonuniy shakllari turli-tumanligi oshib borayotgan bir sharoitda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliq deklaratsiyasi orqali soliqqa tortish mexanizmlarini kuchaytirib borish o‘z samarasiga ega bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

